

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 8 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 9, НОМЕР 8

LOOK TO THE PAST

VOLUME 9, ISSUE 8



ТОШКЕНТ-2026

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марксовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайкулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гоффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариш давлат техника университети

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Қариш давлат университети

Маҳкамova Надира Раҳмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Рашидов Ойбек Расулович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Расулов Абдуллажон Нуриддиневич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмутаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Хакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнуэр Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Юсупов Ахмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Urganch davlat universiteti

Тиллахжаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Тошкент давлат техника университети

Одилов Абдор Анварович
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоков Бахтиёр Робиддинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасев Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

Хасанова Нодира Ибрагимовна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти, Денов
тадбиркорлик ва педагогика институти

Турсунова Юлдуз Бобоқуловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети

1. Надира Махкамова

СОВЕТ ҲОКИМИЯТИ ЎРНАТИЛГАНИДАН КЕЙИН ТУРКИСТОНДА ЖАМИЯТ ИЖТИМОИЙ ТУЗИЛМАСИ ТРАНСФОРМАЦИЯСИ.....5

2. Ollabergan Allaberganov

1945–1960-YILLARDA XORAZM VILOYATI QISHLOQLARIDA MAKTABGACHA TARBIYA TIZIMIDAGI MUAMMO VA ZIDDIYATLAR.....13

3. Zaxra Mirzayeva

K.P. FON KAUFMAN MA’MURIYATINING ILK KO‘RGAZMA TASHABBUSLARI.....17

4. Akmal Mengliboyev

SOVET HOKIMIYATI O‘RNATILISHI ARAFASIDAGI JANUBI-SHARQIY BUXORODA VAZIYAT.....23

5. Xushnudbek Mamadaliev

XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARIDA FARG‘ONA VODIYSI SHAHRLARIDAGI DEMOGRAFIK O‘ZGARISHLAR.....28

6. Xosiyat Nafiddinova

MDH DAVLATLARIDA MILLATLARARO MUNOSABATLARNING TARIXIY-ETNOGRAFIK ASOSLARI VA ZAMONAVIY TADQIQOT YO‘NALISHLARI.....35

7. Бекзод Пайзуллаев

БУХОРО АМИРЛИГИ ВА ҚЎҚОН ХОНЛИГИНИНГ ЖИЗЗАХ, ЎРАТЕПА ВА ХЎЖАНД УЧУН КУРАШЛАРИ ТАРИХИ БЎЙИЧА МУЛОҲАЗАЛАР.....39

8. Mo‘minjon Salayev

BAQTRIYA HUUJATLARIDA AYOLLARNING HUQUQIY VA IJTIMOIIY MAQOMI (IV – VIII ASRLAR).....46

9. Nafisa Hayotova

БУХОРО ШАҲРИ МЕЪМОРИЙ МУҲИТИДАГИ ЎЗГАРИШЛАР: СИЁСИЙ ҲОКИМИЯТ ВА МЕЪМОРИЙ УСЛУБ ЎРТАСИДАГИ БОҒЛИҚЛИК.....55

10. Sevara Elmurodova


O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHIDA MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR MOHIYATI.....64

11. Ziyodulla Eshmirzayev

TO‘G‘ONSIZ SUG‘ORISHDAN MUHANDISLIK NAZORATIGA: XORAZMVOHASI IRRIGATSIYA TIZIMIDAGI BURILISH (1946–1991-YILLAR).....75

12. Абзамжон Юсупов

ФАРҒОНА ВОДИЙСИ ЖАДИДЛАРИНИНГ МАДАНИЙ-МАЪРИФИЙ ВА ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ ФАОЛИЯТИ.....81



ISSN: 2181-9599
www.tadqiqot.uz

Mo'minjon Atabayevich Salayev,
Ma'mun universiteti mustaqil tadqiqotchisi,
ORCID: <https://orcid.org/0009-0000-6751-3351>
E-mail: salayevmominjon0077@gmail.com

BAQTRIYA HUIJATLARIDA AYOLLARNING HUQUQIY VA IJTIMOIY MAQOMI (IV – VIII ASRLAR)

For citation: Muminjon A. Salaev. THE LEGAL AND SOCIAL STATUS OF WOMEN IN BACTRIAN DOCUMENTS (4TH–8TH CENTURIES). Look to the past. 2026, vol. 9, issue 8.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.22010151>

ANNOTATSIYA

Maqolada ilk o'rta asrlar Turon zaminining janubiy o'lkasi bo'lmish Baktريا va Toxariston hududidan topilgan hamda Nikolas Sims-Uilyams nashr etgan baktريy hujjatlar asosida ayollarning huquqiy va ijtimoiy maqomi o'rganiladi. Shuningdek, ushbu maqolada G'arb adabiyotlarida Baktريyani Sharqiy Eronning chekkasi yoxud sosoniy madaniyatining davomi deb qaraydigan eronshunoslik an'anasini asossiz deb hisoblaydi va bu o'lkani Ikki daryo oralig'i hamda ko'chmanchi turkiy dunyo bilan uzviy bog'liq bo'lgan yagona Turon huquqiy va madaniy muhitining ajralmas qismi sifatida talqin qilinadi. Nikoh shartnomalari, ma'muriy va huquqiy maktublar, himoya hamda afv hujjatlari va muhr tasvirlari tahlili shuni ko'rsatadiki, baktريا huquqiy tartibda ayol muayyan huquqlarga ega bo'lgan, guvohlik bera olgan, mulkka, jumladan cho'riga egalik qila olgan va o'z xonadonida hokimiyat yurita olgan huquqiy shaxs sifatida e'tirof etilgan. Ayni chog'da mazkur maqom mutlaq bo'lmagan, u ayolning ijtimoiy holati, tabaqasi va nikoh sharoitiga ko'ra bosqichma-bosqich o'zgargan. Mazkur maqolada Shimoliy Afg'onistondan topilgan Baktريا hujjatlari avval mahalliy Turon an'anasini doirasida, so'ngra qo'shni sug'd nikoh hujjati va turkiy xatun mansabi hamda sosoniylar huquqi bilan qiyoslanadi.

Kalit so'zlar: Turon, Baktريا, Toxariston, ilk o'rta asrlar, baktريy hujjatlar, ayol tarixi, huquqiy shaxs, nikoh shartnomasi, bəvo (bano), xatun, cho'ri, birodarlik ko'p erliligi, xonadon, ayol maqomi, Markaziy Osiyo.

Салаев Муминжон Атабаевич,
Независимый исследователь Университета Маъмуна.
ORCID: 0009-0000-6751-3351
E-mail: salayevmominjon0077@gmail.com

ПРАВОВОЙ И СОЦИАЛЬНЫЙ СТАТУС ЖЕНЩИН В БАКТРИЙСКИХ ДОКУМЕНТАХ (IV–VIII ВЕКА)

АННОТАЦИЯ

В статье на основе бактрийских документов из Бактрии и Тохаристана (южные земли раннесредневекового Турана), изданных Николасом Симс-Вильямсом, исследуется правовой и социальный статус женщины. Автор отказывается от иранистической традиции,

рассматривающей Бактрию как окраину Восточного Ирана или простое продолжение сасанидской культуры, и трактует её как неотъемлемую часть единого туранского правового и культурного пространства, тесно связанного с Мавераннахром, Согдом и кочевым тюркским миром. Анализ брачных договоров, административных и юридических писем, документов защиты и помилования, а также изображений на печатях показывает, что женщина признавалась правовым лицом, способным обладать правами, выступать свидетелем, владеть имуществом, в том числе рабыней, и осуществлять власть в своём доме. Вместе с тем этот статус был не абсолютным, а градуированным в зависимости от социального положения, сословия и брачного состояния. Бактрийский материал рассматривается сначала в рамках местной туранской традиции, затем сопоставляется с согдийским брачным договором и институтом хатун, тогда как сасанидское право служит лишь внешним контрастным фоном.

Ключевые слова: Туран, Бактрия, Тохаристан, раннее средневековье, бактрийские документы, история женщин, правовое лицо, брачный договор, βavo (бано), хатун, рабыня, братская полиандрия, домохозяйство, статус женщины, Центральная Азия.

Muminjon A. Salaev,

Independent Researcher at Ma'mun University

ORCID: 0009-0000-6751-3351

E-mail: salayevmominjon0077@gmail.com

THE LEGAL AND SOCIAL STATUS OF WOMEN IN BACTRIAN DOCUMENTS (4TH–8TH CENTURIES)

ABSTRACT

The article examines the legal and social status of women in early medieval Turan, focusing on its southern lands of Bactria and Tokharistan, on the basis of the Bactrian documents edited by Nicholas Sims-Williams. It abandons the Iranological habit of treating Bactria as a periphery of Eastern Iran or a mere continuation of Sasanian culture, and interprets the region as an integral part of a unified Turanian legal and cultural space bound to Transoxiana, Sogdiana and the nomadic Turkic world. Through an analysis of marriage contracts, administrative and legal letters, documents of protection and pardon, and seal iconography, the author demonstrates that women were recognised as legal persons who could hold rights, act as witnesses, own property including slaves, and exercise authority within the household. This status, however, was not absolute but graded according to social condition, rank and marital state. The Bactrian evidence is read first within its indigenous Turanian tradition, then compared with the Sogdian marriage contract and the Turkic institution of the xatun, while Sasanian law serves only as an external contrasting background.

Index Terms: Turan, Bactria, Tokharistan, early Middle Ages, Bactrian documents, history of women, legal person, marriage contract, βavo (bano), xatun, slave-girl, fraternal polyandry, household, status of women, Central Asia.

1. **Kirish:**

Ilk o'rta asrlar Markaziy Osiyosi, ya'ni Turon zamini tarixiga oid ilmiy adabiyot uzoq vaqt ikki yondashuv ta'sirida shakllandi. Birinchisiga ko'ra Turon o'troq Eron dunyosining chekka hududi deb qaraldi. Ikkinchisiga binoan Baqtriya, Toxariston va Sug'd kabi o'lkalar sosoniy madaniyatining davomi sifatida talqin qilindi. Har ikki qarash Turon o'lkalarini o'ziga xoslik va mustaqil ovozdan mahrum etib, ularni tashqi markazning aksi darajasiga tushirdi. Bu kamchilik ijtimoiy tarixda, xususan ayollar masalasida yaqqol ko'zga tashlanadi, zero o'rta asr jamiyatlari ayolni ko'pincha erkakning mulki sifatida tasvirlagan degan umumiy hukm keng tarqalgan bo'lsa-da, bu hukm aynan Turonning o'z manbalariga tayanadimi degan savol nazardan qochirilgan [5].

Ushbu maqolaning maqsadi mazkur bo'shliqni to'ldirish va Turon jamiyatini o'z hujjatlari asosida tavsiflashdir. Tadqiqotning asosini ilk o'rta asrlar Baqtriya va Toxaristonidan, ya'ni Turon

zaminining Amudaryo havzasidagi janubiy qismidan topilgan **baqtriya hujjatlari** tashkil etadi. Bu hujjatlar yunon alifbosining kursiv shaklida bitilgan bo'lib, milodiy IV asrdan VIII asrgacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Ularning aksariyati XX asr oxiri va XXI asr boshida ilmiy muomalaga kirdi hamda Nikolas Sims-Uilyams tomonidan nashr va tarjima qilindi [1; 2]. Hujjatlar orasida nikoh shartnomalari, oldi-sotdi bitimlari, qarz tilxatlari, ma'muriy va shaxsiy maktublar, huquqiy hamda himoya hujjatlari mavjud bo'lib, ular Turon jamiyatining kundalik, huquqiy va oilaviy hayotini bevosita aks ettiradi.

Tadqiq etilayotgan davr Turon tarixining eng notinch bosqichlaridan biridir. IV asrdan VIII asrgacha o'lkada ustidan kushonshohlar, sosoniylar hamda mahalliy va dashtdan kelgan sulolalar, ya'ni xioniylar, kidariylar, eftaliylar va G'arbiy turklar hokimiyati ketma-ket almashdi, so'ngra arab istilosi va islomlashuv boshlandi. Shunga qaramay Turon jamiyatining kundalik huquqiy va oilaviy tuzilishi, jumladan ayollarga oid me'yorlar sezilarli darajada barqaror qoldi va aksariyat turkiy hukmronlik davrida ham saqlanib qoldi. Ana shu barqarorlik bilan o'zgaruvchanlikning o'zaro nisbati mazkur maqolaning o'zak muammosini tashkil etadi.

Baqtriya hujjatlarida ayolni yagona va qat'iy qolipda emas, balki uning ijtimoiy holati, tabaqasi va nikoh sharoitiga qarab turlicha tavsiflaydi. Bu tavsiflarda ayol ko'p o'rinda **huquqiy shaxs**, ya'ni muayyan huquqlarga ega bo'lgan, guvohlik bera oladigan, mulk egasi bo'la oladigan va o'z xonadonida hokimiyat yurita oladigan shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, hujjatlarda ayolning huquqi eridan quyi turgan, uning taqdiri ko'pincha o'z ixtiyorida bo'lmagan, cho'ri ayol esa butunlay mulk toifasiga kiritilgan.

2. **Mavzuning o'rganilganlik darajasi va manbaviy asosi:**

Baqtriya hujjatlar majmuasining ilmiy asosini Nikolas Sims-Uilyamsning uch jildlik nashri tashkil etadi. Birinchi jild huquqiy va iqtisodiy hujjatlarni qamrab olib, 2000-yilda chop etilgan va 2012-yilda qayta ishlangan [1]. Ikkinchi jild maktublar va buddaviy matnlardan iborat bo'lib, 2007-yilda bosilgan [2], uchinchi jild esa suratlardan tashkil topgan [3]. Mazkur nashrning ahamiyati shundaki, haqiqiy oilalar, nizolar, bitimlar va murojaatlarni qayd etadi. Bunday hujjatlar yuqoridan yozilgan me'yoriy matnlardan farqli o'laroq huquqning kishilar hayotida qanday amal qilganini bevosita ochib beradi.

Mavzu talqiniga bevosita hissa qo'shgan tadqiqotchi Said Rizo Huseyniy hisoblanadi. Uning baqtriya hujjatlardagi ayol, adolat va himoya masalalariga oid ishlari mazkur maqolaning nazariy tayanchidir [5; 6; 7]. Ilk islom davri Baqtriyasida ayolning yurtidan yurtga ko'chishi va nikoh yo'sinini o'rgangan Amelia Azadning tadqiqoti ham e'tiborga molik [13]. Muhr va tasvirlar bo'yicha Judiz Lerner hamda Sims-Uilyamsning katalogi asos bo'ldi [14]. Qiyos uchun sosoniy oilaviy huquqini o'rgangan Maria Makux va Anahit Perixanianning ishlari [9; 10], sug'd nikoh hujjatini nashr etgan Ivan Yakubovich hamda Yutaka Yoshidaning tadqiqotlari [11; 12], turkiy hokimiyat ramzlarini yoritgan Gaybulla Boboyor va hammualliflarning maqolasi [17] va dasht dunyosi tarixiga oid Etyen de la Vaysyerning asarlari [15; 16] jalb etildi.

Baqtriya hujjatlar asosidagi manbaviy asos bir qator qiyinchiliklarni yuzaga chiqaradi. Avvalo matnlar ko'pincha parcha hoida yoki noma'lum sharoitda saqlangan, bir qancha atamaning ma'nosi hanuz munozarali. Qolaversa, hujjatlarning aksariyati noqonuniy qazishmalar orqali savdo bozoriga chiqqani ularning aniq topilma joyi va qazishma muhitini so'roq ostiga qo'yadi. Hujjatlarni o'rganishdagi eng katta qiyinchilik Baqtriya erasi [BE] bo'yicha sanalangan bo'lib, bu eraning milodiy taqvimga nisbati hamon bahsli, binobarin ayrim sanalarni bir necha yilga siljitishi mumkin. Shu bois maqolada sanalar Sims-Uilyams va Huseyniy qabul qilgan tartibda keltiriladi va zarur o'rinlarda taxminiy ekani alohida ta'kidlanadi.

Hujjatlarning o'lkalar bo'yicha taqsimoti alohida qimmatga ega. Baqtriy hujjatlar asosan uch o'lkaga guruhlanadi. Janubda Rob viloyati eng qadimgi hujjatlarni bergan bo'lib, ular taxminan IV asrga oid. Sharqda Kadagston, shimoli-g'arbda esa Go'zgon o'lkasi joylashgan bo'lib, undan VII va VIII asr huquqiy hujjatlari topilgan [4]. Ayolga oid dalillar aynan shu uch o'lkaga tarqalgan, xususan Rob hujjatlari Duxt-anoš va Absigon xonadoni misolida IV asr manzarasini, Kadagston hujjatlari esa turk malikasi hamda Bek o'g'li Mir oilasi misolida VII va VIII asr manzarasini

yoritadi. Bu tarqoqlik ayol holatini ham davrlar, ham Turonning turli o'lkalari kesimida kuzatish imkonini beradi.

3. Tadqiqot usullari:

Maqola uch bosqichli tahlil usuliga tayanadi. Birinchi bosqichda har bir tegishli hujjat, xususan nikoh shartnomasi, malika Duxst-anoš maktubi, Absigon xonadoni haqidagi shikoyat, Kadagston turk malikasi hujjati va Bek o'g'li Mir afv hujjati alohida o'rganilib, undagi ayollarga oid atama va holatlar ajratib olinadi. Bu bosqichda manbashunoslik hamda matn tahlili usullari yetakchilik qiladi. Ikkinchi bosqichda mazkur ma'lumotlar avval qo'shni sug'd va turkiy an'ana, so'ngra tashqi soso'niy huquqi bilan qiyoslanadi, shu tariqa qiyosiy va tarixiy usul qo'llanadi. Uchinchi bosqichda natijalar ayol maqomi va huquqning ijtimoiy tahlili doirasida umumlashtiriladi.

Uslubiy jihatdan asosiy tamoyil shundan iboratki, Turon avval o'z manbalari asosida tushuniladi, keyin qiyoslanadi va hech qachon oldindan tayyor soso'niy qolipiga solinmaydi. Baqtriy atamalar, jumladan βανο (**bano**), φρομανζο (**fromānzo**) va παροβαλο (**parbāl**) matnda yunon yozuvidagi asl shaklida keltiriladi, chunki aynan ularning so'z tarkibiga oid tahlili ayolning huquqiy holatini aniqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shuni ham qayd etish lozimki, baqtriy hujjatlar birlamchi manba bo'lsa-da, ular butun jamiyatning vakolatli namunasi emas. Ular asosan mulkka ega hamda bitim tuzadigan boy va o'rtahol xonadonlarga tegishli, eng quyi tabaqa esa hujjatlarda deyarli aks etmagan. Bu holat barcha hujjatli tarixning tabiiy cheklovi bo'lib, tahlil davomida doimo hisobga olingan.

4. Tahlil va natijalar

4.1. Baqtriy jamiyatning ijtimoiy tuzilishi va xonadon

Ayollarning huquqiy holatini aniqlash uchun avvalo baqtriy jamiyatining asosiy ijtimoiy toifalarini belgilash lozim. Hujjatlarga ko'ra kishilar yo ozod tug'ilgan, yo qul deb tan olingan. Bu asosiy ijtimoiy belgi shaxsning barcha huquqlarini oldindan chegaralab bergan. Ozod kishi mulkka egalik qilish, bitim tuzish, guvohlik berish va hokimiyatga murojaat etish huquqiga ega bo'lgan, qul esa boshqa kishining mulki sanalib, uni sotish, hadya etish yoki jazolash mumkin bo'lgan. Qul faqat o'z bahosini to'laganda yoxud xojasini rozi qiladigan darajada yaxshi xizmat qilganda ozodlikka erishardi [5].

Ayolning huquqi ham dastavval uning ozod yoki qul ekaniga bog'liq bo'lgan. Ozod ayol huquqiy tartib tan oladigan shaxs, cho'ri yoki kanizak esa mulk sanalgan. Bu asosiy farq butun tahlil davomida hal qiluvchi o'rin tutadi, negaki baqtriya hujjatlar ayolni yaxlit toifa sifatida emas, balki ijtimoiy holatiga ko'ra bo'lingan tarzda ko'radi. Shu sababli mazkur muammoni o'rganishda dastlabki savol doimo shu ayol ozodmi yoki qulmi degan savol bo'lmog'i kerak, chunki keyingi barcha huquqiy belgilar shu javobga bog'liqdir.

Baqtriya ijtimoiy tuzilishning ikkinchi tayanchi **xonadon** tushunchasidir. Baqtriy huquqiy tartibda xonadon asosiy ijtimoiy va iqtisodiy birlik bo'lgan, huquqlar hamda majburiyatlar ko'pincha alohida shaxsga emas, balki butun xonadonga taalluqli edi. Ayol, Huseyniy ta'biricha, oilaning tayanchini tashkil etardi [5]. Xonadon yaxlitligini ta'minlagan o'ziga xos tartib **poliandriya**, ya'ni bir necha aka-ukaning bitta ayolga uylanishi bo'lgan. Bunda aka-ukalar xonadon mulkiga birgalikda va teng huquq bilan egalik qilgan, natijada yer hamda mol-mulk bo'linib ketmagan [8]. Xonadonni tark etish, masalan aka-ukalardan birining oiladan butunlay chiqib ketishi, huquqiy jihatdan jiddiy masala, ba'zan qonunga xilof ish hisoblangan. Ayol esa ana shu xonadon tuzilishining markazida, uni birlashtirib turuvchi bo'g'in sifatida turgan.

Poliandriya ayollar tarixida ikki yoqlama ahamiyat kasb etadi. Bir tomondan u ayolni bir necha erga bog'lab, shaxsiy ixtiyor erkinligini cheklaydi, zero ayol bu o'rinda mustaqil shaxs emas, balki xonadonni birlashtiruvchi bo'g'in sifatida qaraladi. Ikkinchi tomondan ayni shu markaziy o'rin ayolga xonadon ichida hal qiluvchi ahamiyat etadi, chunki mulk, nasl va xo'jalikning davomiyligi u orqali ta'minlanadi. A. Azadning fikricha bu tartib mahalliy iqtisodiy zaruratdan, ayniqsa mulkni saqlash ehtiyojidan kelib chiqqan bo'lib, uni oddiy qadimiy odat deb baholash asossizdir [13].

4.2. Nikoh va ayol maqomining o'zgarishi:

Ayolning ahvoli turmushga chiqishi bilan tubdan o'zgargan. Qizlik chog'ida ega bo'lgan bir qancha huquqqa ayol nikoh orqali erishardi. Bu o'zgarishning eng aniq hujjatli dalili Baqtriya erasining 110-yilida tuzilgan nikoh shartnomasidir. Mazkur shartnoma bir ayolning ikki aka-ukaga turmushga chiqqanini qayd etadi, ya'ni u yuqorida zikr poliandriyaning amaldagi dalilidir [1]. Hujjatning huquqiy tili ayol maqomidagi o'zgarishni nihoyatda nozik atamalar orqali belgilaydi.

Nikohdan avval, kuyovlarning otasi qizni sovchilik qilgan pallada, u hujjatda ozod ayol deb ataladi, ya'ni uning nikohga kirishdagi asosiy belgisi huquqiy erkinligi va mulk emasligidir. Turmushga chiqqach uning maqomi o'zgaradi va u uyda hokimiyatga ega **φρομάνζο (fromānzo)**, ya'ni farmon beruvchi bekaga aylanadi [5]. Bu atama alohida ilmiy qimmatga ega, chunki u turmush qurgan ayolni sust va harakatsiz mulk emas, balki xonadon ichida hokimiyat sohibi sifatida ko'rsatadi. Atamaning o'zagi framān so'zi bo'lib, farmon yoki buyruq ma'nosini beradi, binobarin ayol nikohdan so'ng o'z doirasida buyruq bera oladigan kishiga aylanadi. Shu tariqa nikoh ayolni mulk holatidan emas, balki bir huquqiy maqomdan ikkinchi, yanada vakolatli maqomga o'tkazuvchi huquqiy harakat vazifasini bajaradi.

Shunday bo'lsa-da bu o'zgarishni bir yoqlama baholash noto'g'ridir. Turmush qurgan ayol hurmatga sazovor bo'lib, yangi uyda hokimiyatga ega bo'lsa ham, o'z taqdirini nazorat qila olmasdi va uning umumiy mavqeyi eridan quyi turardi. Nikoh ayolga uy ichidagi vakolatni bergan, ammo uni erkaklar boshqaradigan xonadon tabaqalanishining eng yuqori pog'onasiga ko'tarmagan. Shu ma'noda nikoh ayol maqomining ham kengayishi, ham chegaralanishini bir vaqtda ifodalaydigan qo'shaloq hodisadir. Nikoh shartnomasining muhim belgisi yana uning yozma va guvohli tabiatidadir, negaki shartnoma bergan huquqlar og'zaki va'da emas, balki muhrlangan hujjatda qayd etilgan majburiyat edi, demak ayolning nikohdagi huquqlari himoya qilinadigan huquqiy da'vo darajasiga ko'tarilgan.

4.3. Zodagon ayol, βavo unvoni va muhr madaniyati:

Ijtimoiy tabaqa ayolning huquqiy imkoniyatlarini keskin kengaytirardi. Zodagon oilalardan chiqqan ayollarga oddiy ayollardan butunlay boshqacha munosabatda bo'lingan. Hujjatlarda ular ko'pincha **βavo (bano)**, ya'ni malika yoki uy bekasi deb atalgan [5]. Bu unvon ayolni yuqori tabaqaga mansub, xizmatkorlar va yerga ega, obro'li shaxs sifatida belgilaydi. Zodagon ayolning muhr ustidagi tasviri ko'pincha salobatli, qimmatbaho taqinchoqlar bilan bezalgan qiyofada ishlangan [14]. Muhr huquqiy hujjatni tasdiqlash vositasi bo'lgani bois ayolning shaxsiy muhrga egaligi uning huquqiy muomaladagi faol ishtirokini ko'rsatadi.

Zodagon ayolning huquqiy vakolatini eng aniq ko'rsatuvchi hujjat taxminan milodiy 350-yilda Rob o'lkasida tuzilgan va zodagon ayol Duxt-anoš haqida hikoya qiluvchi maktubdir. Bu maktub Duxt-anoš o'z xizmatkorlarini muhokama qilish va jazolash huquqiga ega bo'lganini tasdiqlaydi [1; 5]. Demak zodagon ayol o'z xonadoni doirasida haqiqiy hokimiyat, ya'ni mulkka va boshqaruvga oid vakolat yuritgan. Bu holat ayolni sust va harakatsiz mulk deb qaraydigan qolipni bevosita rad etadi. Ayni chog'da bu hokimiyatning aniq chegaralari ham bo'lgan, chunki Duxt-anoš o'z xizmatkorlaridan narigi kishilarni, xususan qal'a qo'mondonining xizmatkorlarini jazolay olmasdi. Shundan ko'rinadiki, zodagon ayolning hokimiyati xususiy doira bilan chegaralangan bo'lib, davlat va jamoat ishlariga daxl qilmasdi. Bu farq muhim, negaki u ayol hokimiyatining haqiqiy, biroq doira jihatidan cheklangan tabiatini aniq belgilaydi.

4.4. Himoya, adolat va ayol nomusi:

Baqtriya jamiyatda adolat kishilarning hayoti, mulki, ijtimoiy mavqeyi va nomusi daxlsizligini kafolatlaydigan tushuncha bo'lib, uni hokimiyat barcha darajada ta'minlashi kutilgan [6]. Ayol bu tartibda ham himoya qilinuvchi tomon, ham himoyani harakatga keltiruvchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Buning eng ko'rsatarli dalili Absigon xonadoni haqidagi maktublar guruhidir. Voqeada Sag ismli kishi Absigon oilasining uyiga kirib, uy bekasi va ichki hovlida yashovchilarga hurmatsizlik qiladi, ya'ni xonadon nomusiga tajovuz etadi. Shikoyatning qanday yo'l bilan yuqoriga yetkazilgani e'tiborga molik. Farmalar amaldoriga murojaat qilgan arizachi Ohrmuzd ismli kimxob to'quvchisi bo'lib, u ehtimol Absigon uyida ishlagan [7]. Ya'ni ayol nomusi haqidagi shikoyat quyi tabaqadagi hunarmand orqali mahalliy hokimiyatga yetkaziladi va hokimiyat aybdorni ogohlantiradi.

Bu voqea bir necha muhim xulosaga olib keladi. Avvalo ayolning nomusi huquqiy himoyaga loyiq qadriyat, ya'ni davlat aralashuviga asos bo'la oladigan huquqiy manfaat sifatida tan olingan. Qolaversa himoya ko'pincha vositachilar orqali harakatga kelgan, zero ayol yoki xonadon o'z shikoyatini bevosita emas, balki hunarmand yoxud xizmatkor orqali hokimiyatga yetkazgan. Himoyaning kalit atamasi παροβαλο (**parbāl**) bo'lib, u ham hukmdorning amaldorga bergan nazorat buyrug'ini, ham arizachini ayblov va jazodan asrash iltimosini ifodalaydi [7]. Himoyaning huquqiy shakli esa χοησαοοβωστιγο (xoesāv-bustīg), ya'ni sud chiqaradigan va amaldorlar muhrlaydigan majburiyat hujjatidir. Bunday hujjatlarda ayol va bolalarning himoyasi eng oldingi o'rinda turgan.

Himoya so'rovining tili hujjatlarda barqaror va rasmiy qolipga ega. Farmalar amaldori Mehr-mareg qal'a qo'mondoni Xvadev-vanindga yozgan maktubida odat bo'lgan salom va ta'zimdan so'ng bir kishini ayblov, nizo va jazodan himoya qilishni iltimos etadi [2]. Xuddi shunday til ayol nomusi buzilgan holatda ham qo'llanadi, negaki xonadonga tajovuz huquqiy aralashuvni harakatga keltiruvchi jiddiy huquqbuzarlik sifatida qaraladi. Mazkur qolipning barqarorligi himoya tasodifiy iltifot emas, balki davlat tomonidan o'rnatilgan huquqiy tartib ekanini tasdiqlaydi, binobarin ayol ham uning himoya doirasiga kiradi.

Ayolning guvohlik berish huquqi alohida ahamiyatga molik. Huseyniy ta'kidlaganidek ayollar nafaqat oila ichida hokimiyatga ega bo'lgan, balki huquqiy hujjatga guvoh bo'lish huquqiga ham ega edilar [5]. Huquqni ijtimoiy hayot ichida o'rganish nuqtayi nazaridan guvohlik qobiliyati huquqiy shaxslikning eng aniq belgisidir, negaki mulk guvohlik bera olmaydi, faqat shaxs bera oladi. Shu bois ayolning guvohlik huquqi ayol mulk degan qolipni eng qat'iy tarzda rad etuvchi dalildir.

4.5. Cho'rilar va ayol mulk munosabatining chegarasi:

Ozod ayolning huquqiy shaxsligi cho'rining butunlay boshqacha maqomi bilan yonma-yon turadi. Cho'ri baqtriya huquqiy tartibda mulk hisoblangan, uni sotish, hadya etish yoki jazolash mumkin edi. Bu ayol mulk qolipining haqiqatan amal qilgan sohasi, biroq u barcha ayolga emas, aynan qul maqomidagi ayolga tegishlidir. Cho'ri va ozod ayol o'rtasidagi munosabatni eng yorqin ko'rsatuvchi hujjat Sharqiy Baqtriyadagi Kadagston turk malikasi tomonidan taxminan milodiy 700-yilda chiqarilgan maktubdir. Bu hujjat qayd etadiki, malikaning kasal va o'lim to'shagidagi farzandi bor edi, Kamird xudosi o'z kohini Kamird-far orqali mo'jiza ko'rsatib bolani sog'aytirdi, buning evaziga malika kohinni ekin yeri va cho'ri qiz berib taqdirlaydi [1; 5].

Ushbu voqea ikki muhim jihatni ochib beradi. Birinchidan, ozod tug'ilgan ayol, bu o'rinda malika, cho'riga egalik qila olar va uni erkakka hurmat belgisi sifatida hadya eta olardi. Ikkinchidan, cho'ri ayol shu tarzda bir shaxsdan ikkinchisiga o'tkaziladigan mulk sifatida qaraladi. Shu bilan birga cho'rilik maqomi ham butunlay o'zgarmas emas edi, zero qul o'z bahosini to'lasa yoki xojasini rozi qilsa ozodlikka chiqardi. Demak, jamiyatda ayol mulk munosabati ikki tomonlama bo'lgan, negaki ozod va zodagon ayol mulk egasi ham, cho'ri esa mulk sifatidagi narsa ham bo'la olardi. Bu ayol degan yagona toifani huquqiy jihatdan bir butun deb qarash mumkin emasligining aniq isbotidir.

4.6. Turk davri va xatun mansabi:

Turon tarixining so'nggi ilk o'rta asr bosqichi, ya'ni turk hukmronligi davri ayollar tarixini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Yuqorida zikr etilgan Kadagston turk malikasi hujjati buning ochiq dalilidir, chunki bu yerda ayol nafaqat mulk egasi, balki hujjat chiqaruvchi hokimiyat sohibi, ya'ni malika sifatida namoyon bo'ladi. U kohinni mukofotlash haqida qaror qabul qiladi, mulk taqsimlaydi va o'z nomidan huquqiy hujjat rasmiylashtiradi. Bu ayolning nafaqat xususiy xonadon doirasida, balki davlat va huquq ishlarida ham vakolatli bo'la olganini ko'rsatuvchi kam uchraydigan dalildir.

Turk xoqonligi davrining yana bir muhim hujjati Bek o'g'li Mir oilasiga tegishli afv va himoya hujjatidir. U Baqtriya erasining 549-yilida, ya'ni taxminan milodiy 771 va 772-yillarda Kadagstonda bitilgan [1; 8]. Hujjat bevosita ayol haqida bo'lmasa-da, ayolni markazga qo'yadigan xonadon tuzilishini yoritadi, zero unda Mirning akasi Bob undan butunlay ketgani qayd etiladi va bu holat masalani oilaviy nizoga aylantiradi. Turk shohi Kera-tonga bu ishga aralashib, Mirning

arizasini odilona va zarur deb topadi hamda uni himoya qiladi. Bu esa turk shohi baqtriya qonunlarning posboni sifatida qabul qilinganini bildiradi, binobarin hokimiyat almashuvi ayolni markazga qo'yadigan mahalliy oilaviy va huquqiy tartibning uzluksizligini buzmagani.

5. Qiyosiy tahlil:

Birinchi qiyos Sug'ddan, aniqrog'i Mug' tog'i hujjatlaridan topilgan mashhur nikoh shartnomasidir. U taxminan milodiy 710-yillarda, Devastich davrida bitilgan [11; 12]. Sug'd va Baqtriya Turonning o'troq markazi bo'lib, savdo, yozuv va huquqiy amaliyotda chuqur bog'langan. Bu hujjat sug'd ayolining huquqiy holatini alohida oydinlikda ko'rsatadi. Shartnomada er va xotin nisbatan teng huquqli tomon sifatida namoyon bo'ladi, xotinga muayyan kafolatlar, jumladan ma'lum sharoitlarda nikohni bekor qilish huquqi beriladi, er esa xotinni yomon muomaladan asrash va uni cho'ri sifatida ko'rmaslik majburiyatini oladi. Yakubovichning fikricha bu shartnoma butun mintaqadagi ayol huquqlarining eng erkin dalillaridan biridir [11]. Muhimi shundaki, u ayolni shartnoma tomoni, ya'ni shartlarni muhokama qiladigan va rozilik beradigan shaxs sifatida ko'rsatadi, bu esa baqtriya nikohdagi ozod ayoldan *φρομὰν*ζο maqomiga o'tish bilan bir yo'nalishdadir.

Ikkinchi, ko'pincha e'tibordan chetda qoladigan qiyosiy nuqtasi ko'chmanchi turkiy dunyo va uning xatun mansabidir. Ilk o'rta asrlarda Baqtriya va Toxariston ustidan eftaliy hamda G'arbiy turk hokimiyati o'rnatilgani bois turkiy davlatchilik an'anasi mahalliy an'ana bilan uyg'unlashdi. Turkiy va dashtiy jamiyatlarda ayol, ayniqsa hukmron sulola ayoli nisbatan yuqori maqomga ega bo'lgan, **xatun** unvoni esa malikaning davlat ishlarida, elchilikda va marosimlarda ishtirokini bildirgan [16]. Aynan shu asosda Kadagston turk malikasi hujjati o'z ma'nosini to'liq ochadi, negaki u mahalliy baqtriy odat emas, balki turkiy xatun an'anasining Toxaristondagi ko'rinishidir. Turkiylikning yana bir izi muhr va tamg'a madaniyatida namoyon bo'ladi, zero zodagon ayolning *βαο* unvoni va muhr ustidagi tasviri turkiy tamg'a hamda muhr an'anasi bilan bir chiziqda turadi [17]. Shu tariqa Turon ayoli o'z maqomini ikki mahalliy manbadan, ya'ni o'troq sug'd va baqtriy huquqiy an'ana hamda ko'chmanchi turkiy xatun an'anasidan oladi.

Nihoyat, Turon huquqiy manzarasini tashqi, ya'ni sosoniy Eron huquqi bilan qiyoslash mazkur mavzuni o'rganish uchun ahamiyatlidir. Sosoniy oilaviy huquqining asosiy manbasi VII asr boshida Farroxmard ibn Vahrom tuzgan Madayan i hazar dadestan, ya'ni Ming hukm kitobidir [9; 10]. Unda nikohning bir necha turi mavjud bo'lib, to'la huquqli podixšoy xotin va tobe čagar xotin farqlanadi, shuningdek stur, ya'ni o'rinbosar vorislik tartibi bo'lib, unda xotin yoki qizi marhum erkakning nasl-nasabini davom ettirish vositasi sifatida qaralgan. Sosoniy huquqidagi eng bahsli masala ayolning shaxs yoki mulk sifatida ko'rilishidir, ayniqsa čagar nikohida xotin mulkka yaqin narsa sifatida qaraladi. Makux va Perixanianning tadqiqotlari sosoniy ayol maqomi ham bosqichli va sharoitga bog'liq ekanini ko'rsatadi [9; 10].

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, sosoniy tartibda nikoh va oila ochiq diniy hamda g'oyaviy asosga, jumladan qarindoshlar o'rtasidagi nikoh g'oyasiga tayangan va davlat zardushtiyligi bilan chambarchas bog'langan. Turon amaliyoti esa bunday diniy tartibni markazga qo'ymaydi, uning nikoh mantiqi, xususan poliandriya ko'proq iqtisodiy va ijtimoiy zaruratga, ya'ni mulkni saqlash hamda xonadonni birlashtirishga asoslanadi. Aynan shu farq Turonni sosoniy Eron dan ajratib turadi va uni sosoniy madaniyatining davomi deb atash asossiz ekanini ko'rsatadi. Uch an'anani qiyoslasak, barchasida ayol maqomi bosqichli va nikoh uni o'zgartiruvchi asosiy huquqiy harakat bo'lsa-da, Turon o'ziga xos ikki mahalliy manbaga ega bo'lib, ular poliandriya, *βαο* hamda xatun unvoni va xonadon markazliligi kabi belgilarni hosil qiladi. Shu bois Baqtriya va Toxariston sosoniy Eronning davomi emas, balki Ikki daryo oralig'i va dasht bilan bog'langan mustaqil huquqiy va madaniy muhitdir.

6. Nazariy mulohazalar:

Yuqoridagi tahlildan bir necha umumiy nazariy xulosa kelib chiqadi. Huquqni ijtimoiy hayot ichida o'rganishda shaxsning maqomi ko'pincha ikki qutb, ya'ni huquqiy shaxs va mulk o'rtasida joylashadi. Ayol mulk qolipi uni mutlaq tarzda mulk qutbiga qo'yadi, biroq baqtriy dalillar bu ikki qutb oralig'ida uzluksiz o'tish borligini talab etadi. Bu o'tishning bir chetida cho'ri, ikkinchi chetida *βαο* va malika turadi, ular o'rtasida esa ozod qiz, turmush qurgan *φρομὰν*ζο hamda beva

kabi oraliq holatlar joylashadi. Ayolning bu qatordagi oʻrni uch omil, yaʼni ijtimoiy holat, tabaqa va nikoh sharoiti bilan belgilanadi. Boshqacha aytganda, ayolning jinsi hech qachon yolgʻiz oʻzi emas, balki ijtimoiy maqom va tabaqa bilan birgalikda uning huquqiy holatini shakllantiradi.

Ikkinchi nazariy jihat hokimiyatning doiraviyligidir. Duxst-anoš misolida koʻrilganidek, ayol hokimiyati haqiqiy, ammo doira bilan chegaralangan, zero ayol xususiy doirada toʻla kuchga ega boʻlsa-da, davlat va jamoat ishlariga dahl qila olmagan. Malika obrazi esa istisno sifatida bu chegarani qisman buzadi, biroq bunday chiqish odatda oliy tabaqa va maxsus holat bilan bogʻliqdir. Uchinchi jihat yozma hujjatda ishtirokning shaxslikni tasdiqlovchi rolidir. Ayolning huquqiy hujjatga guvoh boʻlishi, shaxsiy muhrga ega boʻlishi va oʻz nomidan hujjat chiqarishi uni yozma huquqiy muomalaning toʻla ishtirokchisi sifatida belgilaydi. Nihoyat tahlil manba tanqidi boʻyicha ham xulosa beradi, zero ayol mulk qolipining ustunligi koʻp jihatdan manba tanlovining natijasidir. Meʼyoriy va adabiy matnlar ayolni orzudagi hamda sust qolipda koʻrsatsa, amaliy hujjatlar uni haqiqiy hayotda harakat qiluvchi shaxs sifatida ochib beradi.

Bu oʻrinda ayolning bevosita ovozi bilan uning hujjatdagi aksi oʻrtasidagi farqni ham hisobga olish lozim. Baqtriya hujjatlarda ayol koʻpincha oʻzi yozmaydi, uning holati amaldorlar, erkak qarindoshlar yoki mirzalar tomonidan qayd etiladi. Shu maʼnoda biz ayolning bevosita ovozi emas, balki uning huquqiy tartibdagi aksini koʻramiz. Biroq bu aks ham muhim dalildir, negaki ayolning shikoyati qayd etilishi, nomusi himoya qilinishi va mulki tan olinishi uni huquqiy muomalada hisobga olinadigan shaxs sifatida koʻrsatadi. Toʻliq ovozning yoʻqligi shaxslikning yoʻqligini bildirmaydi, u faqat manbaning cheklovidir.

7. Xulosa:

Ilk oʻrta asrlar Turon, xususan Baqtriya va Toxariston hujjatlari ayol tarixiga oid keng tarqalgan ayol mulk qolipini jiddiy qayta koʻrib chiqishni taqozo etadi. Birlamchi va amaliy manbalarga, yaʼni nikoh shartnomalari, maʼmuriy hamda huquqiy maktublar, himoya va afv hujjatlari, muhr tasvirlariga tayangan tahlil shuni koʻrsatadiki, baqtriy huquqiy tartibda ayol koʻp oʻrinda huquqiy shaxs sifatida tan olingan. U nikoh shartnomasi tuza olgan, turmushdan soʻng xonadonda $\phi\rho\rho\mu\alpha\nu\zeta\omicron$ maqomiga ega boʻlgan, huquqiy hujjatga guvohlik bera olgan, mulkka egalik qila olgan va zodagon boʻlsa xizmatkorlarini boshqara olgan, hatto malika sifatida hujjat chiqara olgan.

Shu bilan birga ayolning huquqi bosqichli va shartli boʻlgan, u ijtimoiy holat, tabaqa va nikoh sharoiti bilan chegaralangan. Choʻri ayol mulk sanalgan, turmush qurgan ayol eridan quyi turgan, zodagon ayol hokimiyati esa xususiy doira bilan cheklangan. Shunday qilib haqiqiy manzara mutlaq mulk va toʻla teng shaxs qutblari oʻrtasidagi uzluksiz oʻtishdir.

Umumiy xulosa shuki, ilk oʻrta asrlar Turonda ayollar harakatsiz mulk emas, balki huquqiy, oilaviy va baʼzan davlat ishlarida faoliyat koʻrsatuvchi, oʻz huquqiga ega shaxs sifatida gavdalantiradi.

Iqtiboslar / Сноски / References

1. Sims-Williams N. Bactrian Documents from Northern Afghanistan. I: Legal and Economic Documents. London, The Nour Foundation, 2000; qayta ishlangan nashr 2012.
2. Sims-Williams N. Bactrian Documents from Northern Afghanistan. II: Letters and Buddhist Texts. London, The Nour Foundation, 2007.
3. Sims-Williams N. Bactrian Documents from Northern Afghanistan. III: Plates. London, 2012.
4. Sims-Williams N. Bactrian Legal Documents from 7th and 8th Century Guzgan // Bulletin of the Asia Institute. 2001. Vol. 15. P. 9-29.
5. Huseini S.R. Women in Late Antique Bactrian Documents. IV-VIII asr baqtriy hujjatlari asosida ilmiy tadqiqot. 2021.
6. Huseini S.R. Justice in the Late Antique Bactrian Documents // Association for Iranian Studies Newsletter. 2020. P. 28-31.

7. Huseini S.R. Mechanisms of Protection in Late Antique Bactria // *Annales. OpenEdition nashri*. 2020.
8. Huseini S.R. Between the Arabs and the Turks. Conversion and Power Dynamics in Early Islamic Bactria // *The Ties that Bind*. Cambridge, Cambridge University Press, 2024. P. 297-326.
9. Macuch M. The Sasanian Law Book *Madayan i Hazar Dadestan* and Its Importance for Iranian Family Law // *The Sasanian World*. 2017.
10. Perikhanian A. The Book of a Thousand Judgements. A Sasanian Law Book / transl. N. Garsoian. Costa Mesa, New York, Mazda Publishers, 1997.
11. Yakubovich I. Marriage Sogdian Style // *Iranian Languages and Texts from Iran and Turan*. Wiesbaden, Harrassowitz, 2007. P. 307-344.
12. Yoshida Y. Sogdian Documents from Mount Mugh // *Encyclopaedia Iranica*. Onlayn nashr.
13. Azad A. Female Mobility and Marriage in Early Islamic Bactria // *The Making of the Medieval Middle East*. 2016.
14. Lerner J.A., Sims-Williams N. Seals, Sealings and Tokens from Bactria to Gandhara (4th to 8th century CE). Wien, ONB, 2011.
15. de la Vaissiere E. Sogdian Traders. A History. Leiden, Brill, 2005.
16. de la Vaissiere E. The Steppe World and the Rise of the Huns // *The Cambridge Companion to the Age of Attila*. Cambridge, 2015.
17. Boboyor G., Habibullayev A. Bati Kokturk Kaganliginin hakimiyet simgeleri. Damga ve muhur // *Turk Dunyasi Arastirmalari*. 2019. 122/240. S. 25-54.

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000